

SHAXSIY TARKIBNI BOSHQARISHDA AYRIM JIHATLAR

Umurzoqov Baxtiyor Boxodirovich*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar**vazirligi Malaka oshirish instituti**Jangovar tayyorgarlik sikli katta o'qituvchisi**shokiralbekov@gmail.com*

Annotasiya: Ushbu maqolada shaxsiy tarkibni boshqarishda uchraydigan asosiy muammolar, zamonaviy yondashuvlar va samarali boshqaruv usullari tahlil qilinadi. Muallif rahbar va xodimlar o'rtasidagi munosabatlarning rolini, samaradorlikni oshirishda motivatsiya va kasbiy rivojlanishning ahamiyatini ko'rsatadi. Ilmiy hamda amaliy takliflar asosida shaxsiy tarkibni boshqarishdagi ayrim muhim jihatlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: shaxsiy tarkib, boshqaruv, motivatsiya, inson resurslari, samaradorlik, rahbarlik, tashkilot.

НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ УПРАВЛЕНИЯ ЛИЧНОГО СОСТАВА

*Умурзаков Бахтиёр Боходирович**Старший преподаватель цикла боевой подготовки**Институт повышения квалификации**МВД Республики Узбекистан**shokiralbekov@gmail.com*

Аннотация: В статье рассматриваются ключевые аспекты управления личным составом, включая современные подходы, проблемы и эффективные методы управления. Автор подчеркивает важность мотивации, профессионального развития и межличностных отношений между руководителями и сотрудниками. Работа содержит научные и практические рекомендации по улучшению управления персоналом.

Ключевые слова: личный состав, управление, мотивация, человеческие ресурсы, эффективность, руководство, организация.

SOME ASPECTS OF PERSONNEL MANAGEMENT

*Umurzakov Bakhtiyor Bakhodirovich**Senior teacher of the combat training cycle**Institute for Advanced Training of the*

Ministry of Internal Affairs
of the Republic of Uzbekistan
shokiralbekov@gmail.com

Annotation: This article explores key aspects of personnel management, focusing on modern approaches, challenges, and effective management strategies. The author emphasizes the role of motivation, professional development, and interpersonal relationships between managers and employees. The paper presents both scientific insights and practical recommendations for improving human resource management.

Keywords: personnel, management, motivation, human resources, efficiency, leadership, organization.

KIRISH

Bugungi kunda harbiy xizmat samaradorligini oshirish, shaxsiy tarkibning kasbiy tayyorgarligi, intizomi va ma'naviy-ruhiy holatini yuksaltirish masalalari harbiy boshqaruv tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Zero, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlashda harbiy qismlar faoliyati, ularda xizmat qiluvchi shaxsiy tarkibning tayyorgarligi, boshqaruv madaniyati va o'zaro munosabatlar darajasi hal qiluvchi omillar sirasiga kiradi.

Shaxsiy tarkibni samarali boshqarish nafaqat tashkilotda intizomni ta'minlash, balki har bir xizmatchining shaxsiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, ularda mas'uliyat hissini kuchaytirish va jamoaviy maqsadlarga yo'naltirish kabi muhim vazifalarni qamrab oladi. Ayniqsa, komandir va qo'mondonlar zimmasida shaxsiy tarkibning ishchanlik muhitini shakllantirish, ruhiy barqarorlikni saqlash, qonunchilik va nizom talablariga rioya etishga yo'naltirilgan oqilona boshqaruvni amalga oshirish kabi mas'uliyatli vazifalar turadi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada shaxsiy tarkibni boshqarishda yuzaga keladigan ayrim muammolar, zamonaviy yondashuvlar va amaliyotda o'z samarasini ko'rsatayotgan boshqaruv usullari tahlil etiladi.

Bugungi kunda yoshlarni ma'naviy-axloqiy va harbiy-vatanparvarlik, ona Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini yanada rivojlantirish borasidagi islohotlar izchil davom ettirilmoqda¹. Ushbu yo'nalishda Qurolli Kuchlar tuzilmalarida harbiy xizmatdagi faoliyatni ham alohida e'tirof etish o'rinlidir.

Harbiy xizmat – O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining umumiy harbiy majburiyatlarni va shartnoma asosida Qurolli Kuchlarda va O'zbekiston

¹2024-yil 20-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga "Yosh chegarachilar" harbiy-akademik litseyiga o'quvchilarni saralab olish tartibini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 38-son Qarori.

Respublikasining boshqa harbiy tuzilmalarida xizmatni bajarish bo'yicha davlat xizmatining alohida turidir².

Harbiy tuzilmalarda shaxsiy tarkibni boshqarish harbiy boshqaruvning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda shaxsiy tarkibning samarali faoliyatini ta'minlash, ularning professional tayyorgarligi, ruhiy barqarorligi hamda intizomli bo'lishini tashkil etish ustuvor ahamiyatga ega.

1. Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Ichki xizmat Nizomining 10-moddasida "Harbiy xizmatchilar harbiy xizmat sharoitlari bilan belgilanadigan cheklovlarni hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun belgilangan barcha huquq va erkinliklardan foydalanadilar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan normalarga amal qiladilar" deya, ifoda etilgan. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, harbiy hayot fenomenal sifatga ega bo'lib, odatdagi hayotdan o'ziga xos xususiyatlari bilan farq qiladi.

Shaxsiy tarkibning boshqaruvi, avvalo, xizmatchilarning o'z vazifalarini anglashi va ularni bajarish uchun yetarli tayyorgarlikka ega bo'lishiga bog'liqdir. Har bir xizmatchining vazifalari aniq belgilangan bo'lib, ularning ish jarayonida yuqori darajadagi hamkorlik va muvofiqlashtiruv ta'minlanishi kerak. Bunda qo'mondonlikning asosiy vazifasi shaxsiy tarkib o'rtasida ishonchli muloqotni yo'lga qo'yish, ularning mas'uliyatini oshirish va umumiy maqsadlar sari harakatlanishni ta'minlashdan iboratdir.

Harbiy xizmatda harbiy xizmatchilar o'rtasidagi munosabatlar yakkaboshchilik prinsipi asosida vujudga keladi. Yakkaboshchilik - Qurolli Kuchlarning harbiy qurilishi, ularga rahbarlik qilish va harbiy xizmatchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning asosiy tamoyimlaridan biri sanaladi. Yakkaboshchilik komandirga (boshliqqa) bo'ysunuvchilarga nisbatan idora etish hokimiyatining to'la huquqi berilishi va zimmasiga harbiy qism (muassasa) va bo'linmalar, shuningdek, har bir harbiy xizmatchi hayoti va faoliyatining barcha jihatlarini uchun davlat oldida shaxsan javob berish mas'uliyati yuklatilishidan iboratdir.

Yakkaboshchilik komandirga (boshliqqa), vaziyatga atroflicha berilgan bahoga asoslanib, o'zi qaror qabul qilish, qonunchilik hujjatlariga va harbiy nizomlar talablariga qat'iy rioya qilgan tarzda buyruqlar berish va ushbu buyruqlar ijrosini ta'minlashga haq-huquq berilganligida ifodalanadi.

²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Harbiy Nizomlarini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-23-sonli Farmonining 1-ilovasi, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Ichki xizmat Nizomi, 1-bob, 4-band.

Buyruqni muhokama qilishga yo‘l qo‘yilmaydi, bo‘ysunmaslik yoki buyruqni bajarmaganlik uchun harbiy xizmatchi O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan javobgarlikka tortiladi³.

Shaxsiy tarkibning tayyorgarligi doimiy ravishda qo‘llab-quvvatlanishi lozim. Harbiy xizmatchilarning ruhiy barqarorligini ta‘minlash maqsadida ular bilan muntazam ravishda psixologik suhbatlar o‘tkazilishi, emotsional qo‘llab-quvvatlov ko‘rsatilishi talab etiladi. Harbiy xizmatchilarning jismoniy holatini saqlash uchun muntazam sport mashg‘ulotlari o‘tkazish va ularning salomatligini nazorat qilish muhimdir.

Shuningdek, shaxsiy tarkibni boshqarishda huquqiy asoslar va harbiy qonun-qoidalarga amal qilish muhim ahamiyatga ega. Harbiy intizom va odob-axloq qoidalariga rioya qilish orqali shaxsiy tarkibning jamoaviy ahilligini ta‘minlash mumkin. Zero, xizmatchilarning huquq va majburiyatlari haqida xabardorligini oshirish ularning mas‘uliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Harbiy xizmatchilar o‘rtasida ma‘naviy-ruhiy muhitni shakllantirish ham boshqaruvning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Harbiy jamoa o‘rtasida do‘stlik va hamkorlik munosabatlarini mustahkamlash, har qanday mojarolarning oldini olishga alohida e‘tibor qaratish kerak. Shuningdek, madaniy-ma‘rifiy tadbirlar orqali xizmatchilarning intellektual va ma‘naviy salohiyatini yuksaltirishga erishish mumkin.

NATIJALAR

Shaxsiy tarkibni boshqarish haqida so‘z yuritar ekanmiz, tahlil natijasidan ko‘zlanayotgan samara amaldagi holatdan farq qilishiga guvohi bo‘lishimiz mumkin. Buning asosiy sababi, har bir komandir o‘ziga xos mafkuraga, xarakterga, boshqaruv uslubiga, temperamentga egaligidadir. Ayrim komandirlar tomonidan Nizom qoidalarini ideologik tahlil qilishda kamchiliklar kuzatiladi. Ular tomonidan Umumharbiy Nizomlarda keltirilgan tartibotlarning umumiy mazmuniga urg‘u berilmasdan fundamental tushunish holatlari uchrab turadi. Qurolli Kuchlar tizimida xizmat qilayotgan komandirlar shuni anglamoqlari kerakki, Nizom talablari komandir va bo‘ysunuvchi o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi, komandirga cheksiz huquq bermaydi. Ayrim komandirlar tomonidan mansab vakolati shu darajada oshirib yuboriladiki, buning natijasida shaxsiy tarkibning psixologik jarohatlanishi yoki deformatsiyasiga olib keladi. Stokgolm sindromi⁴ ana shunday deformatsiyalardan biridir. Stokgolm sindromi bu - o‘zini qurbon qilgan shaxslarga emotsional bog‘liqlik hissi shakllanishini bildiradi. Bu fenomen ruhiy va psixologik jarayonlarning o‘ziga xos reaksiyasi bo‘lib, zo‘ravonga bo‘lgan irodasiz bog‘liqlik va uni himoya qilish

³O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 14 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Harbiy Nizomlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–23-sonli Farmonining 1-ilovasi, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Ichki xizmat Nizomi, 3-bob, 34-bandi.

⁴ <https://skillbox.ru/media/growth/stockholm-syndrome/>

istagini yuzaga keltirishi mumkin. Harbiy xizmatga transformatsiya qiladigan bo'lsak, zulm ostidagi bo'ysunuvchi harbiy xizmatdagi hayotini yengillashtirish uchun komandir bilan emotsional bog'liqlikni kuchaytirishi mumkin. Bo'ysunuvchiga tarbiyaviy ta'sir qilish mobaynida ta'zirning me'yordan ortiq ishlatilishi harbiy xizmatchilarning ongsiz, salbiy ruhiy holatga tushishiga sabab bo'ladi va bu bevosita xizmat sifatining pasayishiga olib keladi. Eng yomon tomoni shuki, zulmning ortishi harbiy xizmatchilar murakkab vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish o'rniga tezda taslim bo'lishga moyillikni yuzaga keltiradi. Shu munosabat bilan komandirlarga shaxsiy tarkib bilan munosabatni o'rnatishda rag'batlantirish, tarbiyaviy ta'sir choralari shuningdek, ta'zirni ham me'yorida qo'llashlari shart. Aks holda, mazkur jarayonlar teskari samara beradi hamda mavjud vaziyatni yanada mushkullashtiradi.

MUHOKAMA

Shaxsiy tarkibni boshqarish harbiy boshqaruv tizimining eng muhim va nozik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqot davomida aniqlangan natijalar asosida bir qator dolzarb masalalar muhokama etildi.

Avvalo, rahbar va xizmatchilar o'rtasidagi munosabatlar boshqaruv samaradorligiga beqiyos ta'sir ko'rsatishi muqarrar. Amalda kuzatilayotgan ayrim holatlarda buyruqbozlik, zo'ravonlik yoki ruhiy bosim kabi salbiy boshqaruv uslublari shaxsiy tarkibning ruhiy barqarorligiga jiddiy ta'sir qilmoqda. Bu, o'z navbatida, xizmat sifatiga va umumiy jamoaviy muhitga salbiy ta'sir qiladi.

Zamonaviy harbiy psixologiya va boshqaruv nazariyalari rahbarning insonparvar, hamdard va maslahatchi bo'lishini ta'kidlaydi. Biroq ba'zi harbiy bo'linmalarda hali ham ma'muriy yondoshuv, intizomni faqat jazo vositasida ta'minlash kabi eskicha qarashlar saqlanib qolgan. Bunday yondashuvlar shaxsiy tarkibda passivlik, itoatkorlikka asoslanganlik va mustaqil fikrlashning susayishiga olib keladi.

Stokgolm sindromi va shunga o'xshash salbiy psixologik holatlar harbiy xizmatda ham ko'rinishi mumkinligi amaliyotda tasdiqlanmoqda. Ya'ni, doimiy ruhiy bosim ostida bo'lgan xizmatchi o'z "zo'ravon" rahbariga nisbatan empatiya his qilishni boshlaydi. Bu holat shaxsiy erkinlikni, shaxsiy pozitsiyani yo'qotishga olib keladi va xizmat samaradorligini pasaytiradi.

Biroq, ilg'or tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, konstruktiv muloqot, psixologik qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish tizimi, jamoaviy ishlash va ochiq munosabatlar asosidagi boshqaruv uslublari shaxsiy tarkib samaradorligini oshirishi mumkin. Harbiy rahbar faqat buyruq beruvchi emas, balki shaxsiy salohiyatni yuzaga chiqaruvchi yetakchi sifatida shakllanishi lozim.

Muhokama jarayonida ma'lum bo'ldiki, qonunchilik va Nizomlarda belgilangan qoidalarni to'g'ri talqin qilish ham juda muhim. Qo'mondonlar tomonidan bu

hujjatlarni nomuvofiq yoki faqat o'z manfaati uchun izohlash holatlari shaxsiy tarkibda adolatsizlik hissi uyg'otishi mumkin.

Boshqaruvda yuzaga kelayotgan muammolarning yechimi — kadrlar malakasini oshirish, inson resurslarini boshqarishda zamonaviy yondashuvlarni joriy qilish, harbiy psixologlar ishtirokini kuchaytirish va normativ hujjatlarga asoslangan adolatli rahbarlikni ta'minlashdan iborat.

XULOSA

Shaxsiy tarkibni samarali boshqarish harbiy tizim barqarorligi va faoliyatini ta'minlashda hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Ushbu maqoladagi tahlillar va kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, harbiy rahbarlikda inson omili, ya'ni shaxsiy tarkibning ruhiy, ma'naviy va kasbiy holatiga munosabat ko'p jihatdan boshqaruvning samaradorligini belgilab beradi.

Xulosa qilib aytganda, harbiy tuzilmalarda shaxsiy tarkibni boshqarish murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, uning samaradorligi turli yo'nalishlarning yaxlit integratsiyasiga bog'liq. Boshqaruv jarayonida qo'mondonlikning mas'uliyati, xizmatchilarning tayyorgarlik darajasi va ularning birgalikda harakatlanishi asosiy o'rin tutadi. Harbiy xizmatchilarning professional rivojlanishi va shaxsiy salohiyatini oshirishga qaratiladigan e'tibor butun jamoaning samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. 2024-yil 20-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga "Yosh chegarachilar" harbiy-akademik litseyiga o'quvchilarni saralab olish tartibini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 38-son Qarori;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Harbiy Nizomlarini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-23-sonli Farmonining 1-ilovasi, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Ichki xizmat Nizomi;
3. <https://skillbox.ru/media/growth/stockholm-syndrome/>;
4. <https://kitobxon.com/>;
5. <https://studyx.ai/>